



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## Qishloq Xo‘Jaligida Klasterlar Faoliyati Samaradorligini Oshirish Yo‘llari

*Toshbadalov Javokhir Nurmatovich*

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti*

### **Annotatsiya:**

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi “Qishloq xo‘jaligida klasterlar faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari” mavzusiga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi klasterlari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish hamda ularni yanada rivojlantirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Dissertatsiyada qishloq xo‘jaligi klasterlarining nazariy asoslari, ularning tashkil etilish tamoyillari va amaldagi holati o‘rganilgan. Shuningdek, klasterlar faoliyatining ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqaruv samaradorligi ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlangan. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, taqqoslash, statistik usullar va tizimli yondashuvdan foydalanilgan. Ish natijasida qishloq xo‘jaligi klasterlari samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, logistika tizimini takomillashtirish, moliyaviy boshqaruvni kuchaytirish hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari qishloq xo‘jaligida klaster tizimini yanada rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining salmoqli qismini tashkil etadi va millionlab aholining bandligini ta‘minlaydi. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish, qo‘shilgan qiymat zanjirlarini rivojlantirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, klasterlashuv tizimining joriy etilishi ayni dolzarb masalalardan biridir.

Klasterlar – bu ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va eksport qilish bosqichlarini yagona zanjirda birlashtiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar tizimidir. Ular qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxini kamaytirish, samaradorlikni oshirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini yaratadi. Prezident farmon va qarorlarida ham aynan

klaster usulining samaradorligi va uni rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan. Biroq, amaliyotda klasterlar faoliyati samaradorligi har doim ham kutilgan natijani bermayapti. Bunga sabab sifatida huquqiy-me'yoriy asoslarning yetarli darajada takomillashmaganligi, moliyaviy resurslardan foydalanishdagi qiyinchiliklar, ilmiy va innovatsion yondashuvlarning sustligi hamda kichik fermer xo'jaliklarining klaster tizimiga to'liq integratsiyalanmaganligi kabi omillarni ko'rsatish mumkin. Shu bois, qishloq xo'jaligida klasterlar faoliyatining real holatini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularning samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq joylarda turmush darajasini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi klasterlari faoliyatini baholashning kompleks mezonlari tizimi ishlab chiqiladi. Klaster samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar aniqlanadi va tizimlashtiriladi. Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy model taklif etiladi. Klasterlarda innovatsion texnologiyalar va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston qishloq xo'jaligida klaster tizimini rivojlantirishning ushbu uch yo'nalishi birgalikda qishloq xo'jaligi sektorida samaradorlikni oshirish, innovatsion imkoniyatlarni kengaytirish va eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning takomillashuvi, zamonaviy texnologiyalar va infratuzilma, shuningdek ilmiy-innovatsion va moliyaviy yechimlar orqali klasterlar uzoq muddatda barqaror rivojlanish va global raqobatbardoshlikka erisha oladi. Shu bilan birga, bu yo'nalishlar kichik va o'rta fermerlar uchun ham innovatsion imkoniyatlar yaratadi hamda qishloq hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

- [1] N. Maxmasobirova. O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini shakllantirishning muammo va istiqbollari. – TDSHU, ilmiy maqola.
- [2] Turdiyeva M.U. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirishda klasterlarni shakllantirish chora-tadbirlari va amalga oshirish yo'llari. – BuxDU, ilmiy maqola.
- [3] Qishloq xo'jaligida ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish: tajribalar, natijalar va innovatsion yondashuvlar. – Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Buxoro, 2021.
- [4] Iskandar Yunusov va boshqalar. Clustering of agriculture in the Republic of Uzbekistan. – TIAME, ilmiy maqola.
- [5] Stephan von Cramon-Taubadel, Shavkat Hasanov. Agricultural Policy in Uzbekistan: Challenges and Priorities. – German Economic Team, Policy Briefing, 2021.
- [6] Azizbek A. Khojimatov. Organize a Cluster System in Uzbekistan Agriculture: Comparison with World Experience. – EJARE, 2022.
- [7] Institut makroiqtisodiy va mintaqaviy tadqiqotlar. O'zbekistonda klasterlarning rivojlanish tendensiyasi va xususiyatlari (2018–2022 yillar), 2023.